



REALIYALAR VA ULARNING TARJIMADAGI AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: Axmedova Muxayyo Tadjimuxamadovna

Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi

va tarjimashunoslik fakulteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti

yo'nalishi 101 – guruh 1 – kurs talabasi

Abdurashidova Rayyona

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimadagi eng muhim jihatlardan biri bo'lgan realiyalar va ularning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Siz Federov, Vlaxov va Florin kabi olimlarning realiyalar to'g'risida bergan tavsiflari haqida tanishishingiz hamda realiyalarning bir nechta turlarini o'rganishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: realiyalar va ularning turlari, olimlar tasnifi, turli madaniyatlar, urf – odatlar, transliteratsiya.

Har bir millat o'z tili, tarixi, taraqqiyotga erishish yo'li, urf odati hamda madaniyati orqali bir – biridan ajralib turadi. Shu sababli hamma xalqning madaniyatiga, an'analariga xos bo'lgan ba'zi so'zlar mavjud bo'lib, ular ma'lum bir voqeaga aloqador qandaydur bayram, buyum yoki taom bo'lishi mumkin. Bunday til birliklari realiyalar deb ataladi. Realiyalar tarjimadagi eng murakkab unsurlardan hisoblanadi va u tarjimondan turli xalqlarning an'analarini, qadriyatlari to'g'risida bilim ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi.

Realiyalar – bu bir xalqning ijtimoiy hayoti ya'ni yillar mobaynida shakllangan va ma'lum vaqt mobaynida ularning urf – odatiga aylangan voqea – hodisalar, qadrli buyumlar, kasblar, bayramlar va shu kabi narsalar jamlammasidir. Bizning vatanimiz O'zbekistonning ham o'z realiyalari bor bo'lib, ularni boshqa tilga tarjima qilishning imkoni yo'q. Masalan, sumalak, doira, mahalla, Navro'z, samovar, qishloq oqsoqoli (rais) kabi birliklar.



Tarjima nazariyasi va amaliyotida realiyalar atamasi XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Mashxur tarjimashunos olimlar S. Vlixov va S. Florin realiyalarni quyidagicha ta'riflaydi: "Realliyalar — bu ma'lum bir xalqning hayoti, madaniyati, ijtimoiy tuzumi va tarixiga xos bo'lgan, boshqa tillarda to'liq leksik ekvivalenti bo'lmagan so'z va iboralardir. Realliyalar tarjimada milliy-madaniy ma'no tashuvchisi sifatida muhim o'rin egallaydi". Olimlar realiyalarni turli guruhlarga ajratishadi:

- Geografik realiyalar > bunday realiyalar ma'lum bir hududga xos, atoqli ot bo'lib, ularga geografik obyektlar: tog'lar cho'llar, o'rmonlar, dengizlar kiradi. Ular aniq hudud bilan bog'liqligi sabali asosan transliteratsiya (bir tildagi so'z yoki matnni talaffuziga emas, balki harfiy tarkibiga asoslanib, boshqa yozuv tizim (alifbo) harflari yordamida ifodalash usulidir) orqali tarjima qilinadi.
- Etnografik realiyalar > xalqlarning turmush tarzi va madaniyati bildiradi. Masalan, maishiy jihozlar, kiyim – kechak, taom, ichimlik, bayram va marosim realiyalari etnografik realiyalardir.
- Ijtimoiy – siyosiy realiyalar > davlat lavozimlari va boshqaruv shakllariga asoslanadi (mahalla, oqsoqol, bek, amir, senat va boshqalar)
- Xalqaro realiyalar > ushbu tur deyarli hamma xalqlarning tillariga bir xil tarzda singib ketgan. Misol uchun yoga, pizza, fast food, co'fe va h.k

A. Federov realiyalarni o'rganib chiqib, ularga quyidagicha baho beradi:

- Realiiylar to'liq tarjima qilinmaydi, ular asosan tushuntiriladi
- Tarjima jarayonida so'z tarjima qilgandan ko'ra o'sha xalqning madaniyatiga nazar soladi.

Agar realiyalar tarjima qilinmasa, "Ular tarjima jarayonida qanday tushuntiriladi?" – degan savol hammada tug'ilishi tabiiy. Tarjimon avval o'sha so'zni asl holida yozib, qavslar orqali uning mazmunini matnga qo'shimcha qilib tushuntirishi yoki o'sha sahifa pasiga uning mazmuni yozib qo'yishi ham mumkin.



Realialarning bo'lishi tarjimonga mos tarjima strategiyalarini tanlash, matn uslubini saqlash, madaniy xatolarga yo'l qo'ymaslik va o'quvchiga umuman yod bo'lgan turli tushunchalarni to'g'ri yetkaza bilish qobiliyatlarini yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytamanki, realiyalar – ma'lum bir xalqning yillar davomida shakllangan madaniy merosi bo'lib, ular tarjima qilish jarayonida katta mas'uliyat talab qiladi. Tarjimondan faqatgina tilni bilish emas, balki o'sha xalqning madaniyati va tarixini bilish ham talab qilinadi. To'g'ri qilingan realiyalar tarjimonning badiiy va ilmiy qobiliyatini oshirib, dunyo qarashini kengaytiradi hamda madaniyatlararo muloqot yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vlahov, Florin, (1980). Untranslatable in Translation.
2. Fedorov, A. V. (1983). Fundamentals of the General Theory of Translation.
3. Vinogradov, V. S. (2001). Introduction to Translation Studies.
4. Karimov N. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent 2010.
5. Qodirov A. Badiiy tarjima masalalari. — Toshkent 2008.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat tilini rivojlantirishga oid” qarorlari va normativ hujjatlari.
7. Ismoilov, S. (2015). Tarjima va madaniyatlararo muloqot.
8. Muxayyoxon Axmedova “Tarjimada uslub masalalari”. Andijon -2024
9. F.Рахимов “Таржима назарияси ва амалиёти”. Тошкент 2016
10. AXMEDOVA, M. (2024). TARJIMADA USLUB VA O'RTA TARJIMANING TA'SIRI. *News of the NUUz*, 1(1.6. 1), 281-284.
11. Axmedova, M., & Maxmudova, G. (2024). TARJIMADA IBORALARNING EKVIIVALNETLIGI. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(1), 182-183.
12. Muhayyo, A., & Avazbek, O. (2023). SIMULTANEOUS TRANSLATION AND ITS HISTORY. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(6), 73-75.



13. Axmedova, M., & Maxmudova, G. (2024). TARJIMADA IBORALARNING EKVIVALNETLIGI. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(1), 182-183.
14. Soliyeva, S., & Ahmedova, M. (2024). HARMONY BETWEEN BORDERS: LEADING INTERCULTURAL DIALOGUES. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 2(21), 416-419.